

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi ichki audit xizmati faoliyatining  
2024-yil III chorak yakunlari bo‘yicha  
HISOBOTI**

**I. Umumiy ma’lumotlar**

*Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik)ning markaziy apparatida ichki audit faoliyatini amalga oshiruvchi hamda boshqa tarkibiy tuzilmalardan mustaqil tarkibiy bo‘linma tashkil etilgan bo‘lib, unda 2 bir shtat birligi mavjud. Vazirlikning 19 ta tizim osti tashkilotlarida jami 10 ichki audit shtat birliklari mavjud shundan 2 tasi vakant.*

**II. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.**

*Hisobot davrida vazirlikning yillik rejasiga muvofiq ikkita nazorat tadbiri o‘tkazildi. Jumladan,*

*Rejaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimiga ajratilgan budget mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi hamda budget daromadlarining to‘liqligini ta‘minlash buyicha rivojlantirish dasturlarining samaradorlik indikatorlari ijrosi natijalarini taxlil qilish va baholash belgilangan. Unga ko‘ra, vazirlikning 2024 yildagi rivojlantirish dasturlarining samaradorlik indikatorlarining ijrosi geologiya qidiruv ishlarini mavsumiylikini inobatga olgan holda dastur doirasida foydali qazilmalar zaxira va resurslarini o‘stirilishi yilning III – IV choragida to‘liq bajarilishi rejalashtirilgan.*

*Shu bilan, birga vazirlikning rivojlantirish dasturlarining samaradorlik indikatorlari 9 oylik ijrosi quyidagi ko‘rinishda amalga oshirilgan:*

*Oltin zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 108%;*

*Kumush zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 194%;*

*Mis zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 110%;*

*Qo‘rg‘oshin zahirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 100%;*

*Rux zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 100%;*

*Volfram zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 103%;*

*Uran zaxirasi tasdiqlangan choraklik chora-tadbir dasturidagi rejaga nisbatan 503% bajarildi;*

*foydali qazilmalarning yangi konlarini aniqlash indikatorini tasdiqlangan choraklik chora-tadbirlar dasturidagi rejada IV chorakda bajarilishi rejalashtirilgan, biroq III chorak yakunlari bilan ma’lum qismi bajarildi;*

*foydali qazilmalarining turlari bo‘yicha zaxira va resurslarini ko‘paytirish indikatorini tasdiqlangan choraklik chora-tadbirlar dasturidagi rejada IV chorakda bajarilishi rejalashtirilgan, biroq III chorak yakunlari bilan ma’lum qismi bajarildi;*

*uglevodorodlar bo‘yicha istiqbolli maydonlarning 3D modelini yaratish indikatorini amaldagi tasdiqlangan choraklik rejaga nisbatan 117% bajarildi.*

*Shuningdek, rejaga muvofiq avgust oyida o‘tkazilgan nazorat tadbiri vazirlik tizimidagi “Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish*

loyiha ofisi” davlat muassasasida amalga oshirildi. Taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi o‘rganilganda, bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi.

Jumladan, ish haqi va qo‘shimcha ustamalarni to‘g‘ri hisoblanishi tahlil qilinganda, 1 holatda jami 6 295,9 ming so‘m ya‘ni bosh mutaxassis A.Nuriev 2023-yil iyul oyida mehnat ta‘tilida bo‘lsada, iyul oyida ishlagan 1 kuni uchun to‘liq oklad 6 295,9 ming so‘m qo‘shimcha ustama noto‘g‘ri hisoblangan hamda 5 540,4 ming so‘m to‘lab yuborilgan. Bosh mutaxassis D.Ibodovaga ortiqcha to‘langan 5540,4 ming so‘m budget mablag‘i o‘rganish jarayonida muassasa hisob-raqamiga undirildi.

Ta‘til pullarini to‘g‘ri hisoblanishi o‘rganib chiqilganda, loyiha ofisi xodimlari Sh.Zikriyoevga 271 291 so‘m, Sh.Tojimurodovga 211 004 so‘m, A.Allayorovga 482 317 so‘m va J.Turdalievga 1 821 481 so‘m 4 holatda jami 2 786 094 so‘m ortiqcha va 3 holatda jami 819 893 so‘m shundan D.Komilovga 85 690 so‘m, A.Xakimovaga 237 162 so‘m va N.Aliboevga 497 034 so‘m kam hisoblanganligi aniqlandi.

Xizmat safari hujjatlarini rasmiylashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risida”gi Nizom talablariga amal qilinmagan.

Jumladan, nizomning 9-bandida “Xizmat safariga yuborilgan joyda haqiqatda o‘tkazilgan vaqt xizmat safari joyiga kelgan va xizmat safari joyidan ketgan kunlarni xizmat safari guvohnomasiga belgi qo‘yish orqali aniqlanadi” deb ko‘rsatilgan bo‘lsada, muassasaning bosh mutaxassisi Sh.Zikriyoevni 10-12 may kunlari Qashqadaryo viloyatiga xizmat safariga yuborish haqida 10.05.2022 yilda 16-sonli buyruq chiqarilgan. Lekin “xizmat safari guvohnomasi”da uning qayerga borganligini tasdiqlovchi muhrlar qo‘yilmagan bo‘lsada, 16.05.2022 yildagi 4-sonli avans xisobotiga qo‘ra 632 170 so‘m xizmat safari xarajatlari to‘lab berilgan. Buyruqda Samarqand shahri ko‘rsatilmagan bo‘lsada, Samarqand shahridagi “ARBA BREND” oilaviy korxonasi chekiga ko‘ra 250,0 ming so‘m yotoq xarajati to‘langan.

Muassasada tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati mavjud emas. Ayrim tuzilayotgan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurash bandini qo‘shmasdan shartnomalar rasmiylashtirilgan yoki manfaatlar to‘qnashuvi va affilanganlik holatlari o‘rganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib “Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish loyiha ofisi” davlat muassasasi raxbariyatiga tegishli tavsiyalar berildi.

### **III. Hisobot davrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.**

Hisobot davrida vazirlikda o‘tkazilishi rejalashtirilgan, biroq amalga oshirilmagan audit tadbirlari mavjud emas.

### **IV. Ichki audit obektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.**

Tog‘-kon geologiya vazirligining 2024 yil 20 martdagi 28-sonli buyrug‘i bilan Geologiya fanlari universitetida o‘tkazilgan moliyaviy nazorat tadbirlarida aniqlangan xato kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq Universitetga 2024 yil uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag‘larni 1 546 809 ming so‘mga kamaytirilgan holda yillik xarajatlar smetasini ishlab chiqib va tasdiqlashgan.

Shuningdek, “Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasida o‘tkazilgan ichki audit tadbirida berilgan tavsiyalarga ko‘ra muassasa tomonidan xodimlarga ortiqcha to‘langan 46 163 564 so‘m miqdordagi mablag‘lar budjetga tiklangan.

*“Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish loyiha ofisi” davlat muassasasining ish haqi va qo‘shimcha ustamalarni to‘g‘ri hisoblanishi tahlil qilinganda, 1 holatda jami 6 295,9 ming so‘m ya‘ni bosh mutaxassis A.Nuriev 2023-yil iyul oyida mehnat ta‘tilida bo‘lsada, iyul oyida ishlagan 1 kuni uchun to‘liq oklad 6 295,9 ming so‘m qo‘shimcha ustama noto‘g‘ri hisoblangan hamda 5 540,4 ming so‘m to‘lab yuborilgan. Bosh mutaxassis D.Ibodovaga ortiqcha to‘langan 5540,4 ming so‘m budjet mablag‘i o‘rganish jarayonida muassasa hisob-raqamiga undirildi.*

#### **V. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar.**

*Vazirlik tizimosti tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish maqsadida ichki audit xodimlarini rag‘batlantirish masalalarini normativ huquqiy hujjatlarda nazarda tutish.*

#### **VI. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta‘minlash va oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.**

*Vazirlikda ichki audit xizmatini mustahkamlash maqsadida markaziy appartda mavjud bir shtat birligini ikkitaga oshirish taklifi kiritilgan.*

*Vazirlik tizimosti tashkilotlarining buxgalteriya va iqtisodiyot bo‘limlari hamda ichki audit xizmati xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan sohaga oid seminar va treninglar tashkil etish rejalashtirilgan.*

#### **VII. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar**

*Geologiya-qidiruv ishlari 2018 – 2022-yillarda qayta ishlab chiqilgan (ish birligiga) va Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 56 kitobdan iborat 22 turdagi “Smeta me‘yorlari to‘plami” asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu “Smeta me‘yorlari to‘plami” 1998-yildagi “Smeta me‘yorlari to‘plami” asos qilib oligan hamda har bir ish birligi o‘lchamlariga keltirilgan.*

*Oxirgi besh yillikda geologiya sohasiga bir qancha zamonaviy asbob-uskuna hamda dasturiy ta‘minotlar xarid qilinib, ishlab chiqarishga jalb qilindi. Bu esa o‘z navbatida amaldagi “Smeta me‘yorlari to‘plami” ni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Tegishli vazirlik va idorlardan mutaxassislar jalb qilib “Smeta me‘yorlari to‘plami”ni qayta ko‘rib chiqish maqsadida vazirlikda ishchi guruh tashkil etilgan.*

*Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Bosh prokuraturaning 2024-yil 8-maydagi “Davlat budjeti mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi qo‘shma yig‘ilish 6-son Bayoniga muvofiq Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi sohasida moliyaviy va boshqa xavflarni(risklarni) barvaqt oldini olish uchun kollegial asosda tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbarlaridan iborat Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasini tashkil etildi.*

#### **VIII. Vazirlik faoliyatida budjet intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budjet xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar.**

*O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining qo‘shma qaroriga muvofiq Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga hamda uning quyi tuzilmalariga ajratilgan budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini doimiy monitoring qilinib kelinmoqda.*

*Vazirlik tizimosti tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan (bajarilayotgan) geologiya qidiruv ishlarini va ularning natijasidagi geologik ma'lumotlarni (hisobotlarni) qabul qilish saqlash jarayonini raqamlashtirish.*

**Ichki audit bo'limi  
bosh mutaxassisi**

**A. Sadikov**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_